

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 2 | SON 2

2026



SAYT: <https://Lingvoscience.uz>

LINGVOSCIENCES.UZ

2-jild 2-son 2026-yil

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

**CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND
CULTURAL STUDIES**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И
КУЛЬТУРОЛОГИИ**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi.
E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail, zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

“Lingvistik va madaniyatshunoslik fanlarining dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektr
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 2-son (fevral, 2026). - 25 bet.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraximov Abror

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI..... 5-10

Xudoyorov Shodiyor

OLIY TA'LIMDA "PLASTIK ANATOMIYA" FANINING O'QUV-USLUBIY ASOSLARI 11-16

Toshmatov Boboxon

O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING
O'RNI 17-20

Jo'rayeva Sohibjamol, Hayitova Zilola

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI 21-24

Article / Original Paper

OLIY TA'LIMDA "PLASTIK ANATOMIYA" FANINING O'QUV-USLUBIY ASOSLARI

Xudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Email: xudoyorovshodiyor408@gmail.com

Tel: +998978207979

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Plastik anatomiya" fanini o'qitishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Fanning ta'limidagi o'rni, talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Plastik anatomiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda ilm-fan integratsiyasiga doir ilmiy qarashlar asosida fanni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: plastik anatomiya, tasviriy san'at, metodika, kompetensiya, anatomik tasvir, innovatsion texnologiyalar.

EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR TEACHING THE DISCIPLINE "PLASTIC ANATOMY" IN HIGHER EDUCATION

Khudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li

Master's student, Gulistan State Pedagogical Institute

Annotatsiya. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for teaching the discipline "Plastic Anatomy" in higher education institutions. It examines the role of this discipline in education, its importance in developing students' professional competencies, and the use of modern pedagogical technologies. Based on scientific perspectives, the need to improve the content and teaching methods of this discipline is substantiated.

Kalit so'zlar: plastic anatomy, fine arts, methodology, competencies, anatomical drawing, innovative technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I2Y2026N02>

KIRISH (Introduction)

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali pedagogik samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [5; 102-b.]. Bu jarayonda tasviriy san'at ta'limi ham zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda [7].

Plastik anatomiya tasviriy san'atning fundamental fanlaridan biri bo'lib, inson tanasining tuzilishi, proporsiyalari va harakat qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan [3]. Inson obrazini realistik va badiiy jihatdan to'g'ri ifodalash rassomdan chuqur anatomik bilimni talab etadi [1]. Shu bois ushbu fan bo'lajak rassom-o'qituvchilar, dizaynerlar va haykaltaroshlar kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [9].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (Literature Review and Methodology)

Plastik anatomiyaning ilmiy asoslari Uygʻonish davrida shakllangan boʻlib, bu davr sanʼat va ilm-fan uygʻunligining yorqin namunasi sifatida eʼtirof etiladi. Leonardo da Vinchi inson tanasi tuzilishini chuqur oʻrganib, anatomik rasmlar orqali badiiy tasvir va ilmiy kuzatuv oʻrtasidagi bogʻliqlikni isbotlab bergan [1]. Uning tadqiqotlari rassom uchun kuzatuvchanlik va tahlil muhim ekanini koʻrsatdi (1-rasm).

XVI asrda Andreas Vesaliusning “De humani corporis fabrica” asari anatomiyaning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllantirdi. Unda keltirilgan illustrasiyalar nazariy bilimlarni vizual tarzda anglash imkonini berib, sanʼat taʼlimi uchun mustahkam metodik asos yaratdi [2].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tasviriy sanʼat taʼlimida qalamtasvir va rangtasvir talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi muhim vositalar sifatida eʼtirof etiladi [3; 45-b.], [7; 41-48-b.]. Oliy oʻquv yurtlarida badiiy taʼlimni samarali tashkil etish masalalari Oʻzbekistonlik metodist olimlar B. Boymetov, S. Abdirasilov, F. Mannopov va R. Z. Xayrovlar tomonidan atroflicha oʻrganilgan [3; 12-b.], [10; 5-9-b.].



**1-rasm. Leonardo Da
Vinchi. “Anatomik
rasmlar”**

Ularning ilmiy qarashlariga koʻra, badiiy taʼlim jarayonida akademik anʼanalarni saqlagan holda talabalarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, nazariya va amaliyot uygʻunligini taʼminlash hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega [8; 132-b.]. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, anʼanaviy akademik tajribani zamonaviy raqamli imkoniyatlar bilan uygʻunlashtirish talabalarning kuzatuvchanligi, obrazli fikrlashi va pedagogik mahoratini shakllantirishda samarali omil boʻlib xizmat qiladi [11; 528-b.].

Mazkur metodik qarashlardan kelib chiqib, Guliston davlat pedagogika institutida “Plastik anatomiya” fanini oʻqitish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlari 2025-2026 oʻquv yili kuzgi semestrda amalga oshirildi. Tadqiqot 3-kurs “Tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasi” bakalavr taʼlim yoʻnalishida tahsil olayotgan 27 nafar talaba ishtirokida tashkil etildi. Uning asosiy maqsadi talabalarda anatomik bilimlarni chuqurlashtirish, plastik fikrlash va badiiy tasvir mahoratini rivojlantirish hamda nazariya va amaliyot uygʻunligini taʼminlashdan iborat boʻldi [7; 41-b.].

Tadqiqot jarayonida individual yondashuv va tabaqalashtirilgan taʼlim metodlariga tayanildi. Individual yondashuv asosida har bir talabaning badiiy tayyorgarlik darajasi, kuzatuvchanligi va ijodiy qobiliyati oʻrganilib, ularga mos topshiriqlar ishlab chiqildi [9; 6985-b.]. Masalan, tayyorgarlik darajasi yuqori boʻlgan talabalarga murakkab harakat holatidagi inson figurasini tasvirlash, mushaklar dinamikasini tahlil qilish kabi vazifalar berilgan boʻlsa, boshlangʻich koʻnikmalari yetarli darajada shakllanmagan talabalar bilan proporsiya, skelet tuzilishi va asosiy mushak guruhlarini bosqichma-bosqich oʻrganishga qaratilgan mashgʻulotlar olib borildi [3; 78-82-b.]. Bu esa taʼlim jarayonida har bir talabaning imkoniyatlarini toʻliq namoyon etishga xizmat qildi [8; 130-132-b.].

Tabaqalashtirilgan taʼlim oʻquv materialini murakkablik darajasiga koʻra tizimlashtirish orqali amalga oshirildi. Mashgʻulotlar jarayonida “oddiydan murakkabga” tamoyiliga amal qilinib, dastlab skelet konstruksiyasi grafik jihatdan tahlil qilindi, keyin mushaklar plastikasi

o'rganildi va so'ng tashqi shaklni badiiy ifodalash bosqichiga o'tildi [3; 90-95-b.]. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarda naturadan rasm chizish, tezkor eskizlar tayyorlash hamda turli harakat holatlarini tahlil qilish kabi topshiriqlar qo'llanildi [10; 22-27-b.]. Bunday metodika talabalarning fazoviy tasavvurini kengaytirib, obrazni yaxlit idrok etish qobiliyatini rivojlantirdi [7; 45-b.].

Tadqiqot doirasida fanlararo integratsiyaga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, plastik anatomiya bo'yicha olingan bilimlar rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtirilib, talabalarga anatomik jihatdan to'g'ri va badiiy jihatdan ifodali obraz yaratish imkoniyati yaratildi [8; 131-b.]. Ayrim mashg'ulotlarda raqamli vizual materiallar va 3D modellardan foydalanish talabalarning anatomik tuzilishni tezroq anglashiga yordam berib, o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qildi [11; 529-b.].

MUHOKAMA (Discussion)

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning o'quv faolligini sezilarli darajada oshirib, ularda tahliliy fikrlash, kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurni rivojlantirdi [9]. Eng muhimi, talabalar inson tanasining plastik tuzilishini chuqurroq anglay boshlab, uni badiiy obrazda ishonchli aks ettirish ko'nikmalarini shakllantirdilar [3; 112-118-b.]. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali kasbiy mahoratni mustahkamlashga xizmat qildi [7].

Tadqiqot jarayonida plastik anatomiyaning o'qitishning bosqichli metodikasi samarali ekani kuzatildi. Mashg'ulotlar dastlab skelet tuzilishini grafik tahlil qilishdan boshlanib, keyin mushaklar plastikasini o'rganish va tashqi shaklni badiiy ifodalashga yo'naltirildi [3; 95-b.]. "Qatlamli o'qitish" usuli talabalarga inson tanasini yaxlit tizim sifatida idrok etish imkonini berib, ilmiy tafakkur va plastik fikrlashning uyg'un rivojlanishini ta'minladi [10; 28-b.].

Shu bilan birga, fanni rangtasvir, kompozitsiya va haykaltaroshlik kabi badiiy fanlar bilan integratsiya asosida o'qitish ijobiy natijalar berdi. Bunday yondashuv talabalarning ijodiy qobiliyatini faollashtirib, harakat dinamikasini to'g'ri tasvirlash va badiiy aniqlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qildi [8; 4]. Amaliy mashg'ulotlarda vizual materiallar, modellar va zamonaviy grafik vositalardan foydalanish esa anatomik bilimlarning tez va mustahkam o'zlashtirilishiga yordam berdi [11; 12].

Shuningdek, talabalarni milliy va badiiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni mashhur rassomlar ijodi bilan tanishtirish orqali estetik tafakkurni rivojlantirishga erishildi. Ta'lim jarayonida individual yondashuvdan foydalanish esa talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga xizmat qildi [14; 56-59-b.].

Shunday qilib, mazkur tajriba plastik anatomiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash talabalarning nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki amaliy-badiiy mahoratini ham rivojlantirishini tasdiqladi. Natijada ular mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila oladigan, anatomik bilimlarni san'at amaliyotida samarali qo'llaydigan va professional faoliyatga tayyor mutaxassislar sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo'ldilar [15; 1054-1056-b.].

NATIJALAR (Results)

Tajriba-sinov ishlari natijalari plastik anatomiya fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish talabalarning kasbiy tayyorgarligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Tadqiqot avvalida va yakunida o'tkazilgan diagnostik baholash

natijalariga ko'ra, talabalarining anatomik bilimlarni amaliy tasvirga tatbiq etish darajasi o'rtacha **12%** ga oshgani aniqlandi. Bu ko'rsatkich qo'llanilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini dalillaydi.

Ayniqsa, individual yondashuv va tabaqalashtirilgan ta'lim metodlari yuqori natija berdi. Individual topshiriqlar talabalarining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tanlangani ularning o'quv jarayonidagi faolligini kuchaytirib, murakkab anatomik shakllarni anglashni osonlashtirdi [9; 6986-b.], [14; 57-60-b.]. Tabaqalashtirilgan mashg'ulotlar esa "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida tashkil etilgani bois talabalarda bilimlarni izchil o'zlashtirish mexanizmini shakllantirdi [3; 88-b.].

Shuningdek, "qatlamli o'qitish" metodikasi - skelet konstruksiyasi, mushaklar plastikasi va tashqi shaklni bosqichma-bosqich tasvirlash fazoviy tafakkur va plastik idrokning rivojlanishiga xizmat qildi [10; 24-b.]. Natura asosida rasm chizish, tezkor eskizlar bajarish va harakatdagi figuralarni tahlil qilishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar talabalarining kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada mustahkamladi [7; 45-b.], [12; 283-b.].

Fanlararo integratsiya ham muhim natijalarni namoyon etdi. Plastik anatomiya bo'yicha olingan bilimlarni rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlarida qo'llash orqali talabalarda badiiy obrazni anatomik jihatdan to'g'ri va ifodali yaratish ko'nikmasi shakllandi. Elektron ta'lim resurslari va vizual materiallardan foydalanish esa anatomik tuzilishni tezroq anglashga yordam berib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlar, bosqichli o'qitish hamda amaliy mashg'ulotlarga tayangan metodika talabalarining kuzatuvchanligi, proporsiyani to'g'ri tasvirlash mahorati va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligini rivojlantirishda samarali ekanini ko'rsatdi. Natijada talabalarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda professional amaliy mahorat ham shakllanib, ularning badiiy-pedagogik kompetensiyasi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

XULOSA (Conclusion)

Plastik anatomiya tasviriy san'at ta'limining nazariy va amaliy poydevorini tashkil etuvchi muhim fan sifatida talabalarining professional shakllanishida alohida o'rin egallaydi [3; 5-b.]. U inson tanasining tuzilishini ilmiy asosda anglash, realistik va ifodali badiiy obrazlar yaratish hamda talabalarining estetik didi va plastik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [1; 7].

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv, tabaqalashtirilgan ta'lim, bosqichli ("qatlamli") o'qitish va fanlararo integratsiya kabi metodlar plastik anatomiyaning o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, mazkur metodlar qo'llanilgan guruhda talabalarining anatomik bilimlarni amaliy tasvirga tatbiq etish ko'rsatkichi o'rtacha **12%** ga o'sgani ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhimligini tasdiqlaydi. Bu esa nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligi talabalarining kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, plastik anatomiyaning rangtasvir, kompozitsiya va haykaltaroshlik fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'qitish talabalarda obrazni yaxlit idrok etish, harakat dinamikasini to'g'ri ifodalash va badiiy aniqlikka erishish imkoniyatini kengaytiradi. Zamonaviy raqamli

resurslar va vizual materiallardan foydalanish esa o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini oshirib, murakkab anatomik shakllarni tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: plastik anatomiya fanini samarali o'qitish uchun ta'lim jarayonida individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim resurslaridan faol foydalanish, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi topshiriqlar tizimini takomillashtirish fanni o'zlashtirish sifatini oshirishga va bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, plastik anatomiyani zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish bo'lajak tasviriy san'at mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi, ularni ijodiy fikrlaydigan, anatomik bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay oladigan va yuqori badiiy saviyaga ega kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Clark, Kenneth; Pedretti, Carlo. Leonardo da Vinci: The Anatomical Drawings. - London: Royal Academy of Arts, 1983. - 200 p.
2. Vesalius, A. (1543). De humani corporis fabrica libri septem. Basel: Johannes Oporinus.
3. Baymetov B.B. Plastik anatomiya (Amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. - T.: Ilm-Ziyo, 2011. -154 b.
4. Khayrova, M. R. (2025). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MILLIY O'ZLIK VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH. Innovative Development in Educational Activities, 4(1), 98-104.
5. Азамкулов Г. О., Хомидов З. Д., ХАЙРОВ Р. З. У. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ КРЕДИТНО - МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //ЕО IPSO Учредители: Издательство" Научная артель. - №. 6. - С. 102-104. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_48565947_43575265.pdf
6. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.
7. Khayrov, R. Z. U. (2025). The Role of Drawing and Painting in the Training of Future Teachers of Fine Arts. International Journal of Formal Education, 4(7), 41-48.
8. Хайров, Р. (2025). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ЧЕРЕЗ АКВАРЕЛЬНУЮ ЖИВОПИСЬ. Предпринимательства и педагогика, 4(2), 126-136.
9. Berikbaev A. A. Development of competence skills of art education students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. - 2020. - Т. 24. - №. 4. - С. 6984-6988.
10. R.Z.Xayrov, Dekorativ rangtasvir. Guliston, 2022.
11. Zolimkhan, K. (2024). Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization. American Journal of Social and Humanitarian Research, 5(12), 528–537.
12. Rasimovna M. K. МАКТАБДА TASVIRIY SAN'AT FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Новости образования: исследование в XXI веке. - 2025. - Т. 3. - №. 33. – С. 281-285.
13. Alimjanovna Y. S. The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev) //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). –2024. –Т. 3. –No. 1. - С. 9-9.

14. Хайров Р. З. Султанов АА ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К УЧЕНИКАМ НА УРОКАХ ИСКУССТВА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА //Символ науки. - 2020. - №. 5.
15. Xudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li,/Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li. (2025). TASVIRIY SAN'AT VOSITALARIDA SIRDARYO VILOYATI OBIDALARINING BADIY TALQINI VA ESTETIK IFODASI. IQRO INDEXING, 18(01), 1053-1057.
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16469>

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

2-jild 2-son 2026-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).